

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ETNOMADANIYBIRLIKLARNINGFOLKLOR ASARLARI TILIDA AKSETISHI

R.Madaminova

Qoraqalpoq davlat universiteti

O‘zbek filologiya fakulteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada etnomadaniy birliklarning folklore asarlari tilida aks etishi ifodalangan. O‘zbek xalq dostonlari tilini o‘rganish qipchoqlar tarixini, madaniyati va an‘analarni o‘rganishga yaqindan yordam beradi.*

Kalitso‘zlar: *leksika, etnografiya, qadriyat, qipchoq, dialekt.*

Аннотация: *в статье рассматривается отражение этнокультурных единиц в языке фольклорных произведений. Изучение языка узбекских народных эпосов помогает изучить историю, культуру и традиции кипчаков.*

Ключевые слова: *лексикон, этнография, значение, кипчак, диалект.*

Abstract: *this article describes the reflection of ethnocultural units in the language of folklore works. Learning the language of Uzbek folk epics helps to learn the history, culture and traditions of the Kipchaks*

Keywords: *lexicon, ethnography, value, Kipchak, dialect.*

Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan hisoblangan «Alpomish» dostonining tilini o‘rganish juda ahamiyatli, ayniqsa, undagi etnografik leksika xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlar, dastur va an‘analarni aks ettirish bilan ajralib turadi. Bu esa milliy qadriyatlarimiz, o‘zligimizni anglashga yordam beradi.

“Alpomish” dostoni turkiy xalqlarning boy ma’naviy merosi bo‘lib, unda milliy qadriyatlarimizni aks ettiradigan ko‘plab urf-odatlar, dastur va an‘analar saqlanib qolgan. Bu haqida birinchi prezidentimiz I.A.Karimov “Alpomish–o‘zbekning o‘zligini namoyish etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avloddan avloddga yetkazib kelayotgan qahramonlik qo‘shig‘idir”–deb juda to‘g‘ri baho bergan edi.

“Alpomish” dostoni o‘zligimizni anglashda, milliy qadriyatlarimizni avaylab asrashimizda xalqimizning asrlar davomida avloddan avlodlariga yetkazilib, saqlanib kelayotgan urfodat, dastur va an‘analarini kelajak avlodga tushuntirishimizda katta manba sifatida xizmat qilishi tabiiydir. Ayniqsa, unda uchraydigan etnografik leksikani o‘rganish milliy, qadriyatlarimiz tiklanib, o‘zligimizni angelayotgan bir davrda ma’naviy ozuqa sifatida xizmat qiladi.

«Alpomish» dostoni qipchoq o‘zbeklaridagi va boshqa turkiy tillarning urf-odatlar, udum va an‘analari, turmush tarzi saqlanib qolgan og‘zaki ijod namunalaridan sanaladi. Ayniqsa, unda qipchoq til elementlarini aks ettirgan etnoleksika yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan: *checha* (yanga), *ul* (ug‘il), *yezna*

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

(pochcha), *enchi*, *emikdosh*, *boybicha* kabi. Dostonda qo‘llangan qadimgi urug‘, elat, millat nomlari ham buni tasdiqlaydi: *o‘zbek*, *qalmoq*, *qo‘ng‘irot urug‘i*, *Kashan eli*, *Boysun eli* kabi. Demak, asrlar davomida qabila va urug‘larning birlasha borishi ilk dialektlararo tilning yuzaga kelishi uchun asos bo‘lgan. Natijada tarixiy til tizimida hududiy chegaralangan (sheva) dialektlarga nisbatan ustun turuvchi og‘zaki ustdialekt vujudga kelgan. Dostonlar tili shevalardan ustun turadigan og‘zaki adabiy tilning ustdialekt (dialektaro nutq) shaklidir. Chunki «Alpomish» dostonida uchraydigan etnoleksika qipchoq guruhi turkiy tillarga, asosan, o‘zbek shevalariga juda yaqin va hozir ham xalqimiz orasida qo‘llanib kelmoqda. Jumladan, amal-unvon bilan bog‘liq: *biy*, *to‘ra*, *oqsoqol*, *otboqor*, *sinchi*, *chopar* kabi.

Aksariyat etnografizmlar «Alpomish» dostonining qipchoq o‘zbeklari an‘analari, rasm-rusumlari bilan bog‘liq ekanligidan dalolat beradi. Ayniqsa, dostonda to‘y-marosim leksikasi buni to‘la tasdiqlaydi: *kengash to‘y*, *kuyov uloq*, *to‘sh qa‘da*, *to‘qqiz tovoq*, *kuyov tovoq*, *qiz opqochdi*, *qiz suylatar*, *chimildiq*, *choch siypatar*, *qo‘l ushlatar* kabi udumlar hozir ham dastur va qa‘da shaklida saqlanib kelmoqda. Bu rasm-rusumlarning bajarilishi, saqlanish darajasi ham barcha qipchoq o‘zbeklari orasida bir xil tarzda uchraydi.

Dostondagi *uloq o‘yin* (ko‘pkari) bilan bog‘liq *kuyov uloq*, *o‘g‘il to‘yi* marosimi hozir ham xalqimiz orasidagi chuqur joy olgan. Shuningdek, dostonda qadimgi turkiy tilga xos *qayin*, *elchi*, *sovchi*, *emakdosh*, *enchi* so‘zlarning qo‘llanilishi uning eng qadimiy doston turidan biri ekanligidan dalolat beradi. Manbada sodda va yasama etnografik atamalar ko‘p uchraydi. Deyarli barcha etnografik atamalar turkiy so‘zlardan iborat, faqat fors-tojik tillaridan o‘tgan *zakot*, *juz‘ya*, *tabgir*, *boybichcha* kabi ayrim so‘zlargina etnografizm sifatida uchraydi. Shuningdek, qo‘shma etnografik atamalar, ya‘ni *kuyov uloq*, *to‘qqiz tovoq*, *choch siypatar* kabi udum va dasturlar ham turkiy so‘zlardan tashkil topgan. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, dostonda uchraydigan etnografik atamalar ko‘pincha qipchoq guruh sheva vakillari nutqida, urf-odat, dastur va an‘analarda saqlanib qolgan. O‘g‘uz guruh o‘zbek sheva vakillarda esa bu rasm-rusumlar boshqacha ataladi. Masalan, o‘g‘uz guruh o‘zbek shevalarida *uskana* – kelinning ota-onasi uyidan olib kelayotgan barcha buyumlari (*Gelinnig uskenesi yuklangan mashынън shopыръ yez kedesi bolady* (Sho‘raxan shevasida); qipchoq guruh o‘zbek shevalarida esa bu *sep* deb ataladi (*Sepli kelin yepli kelin* (maqal).

O‘zbek xalq dostonlari tilini o‘rganish qipchoqlar tarixini, madaniyati va an‘analarni o‘rganishga yaqindan yordam beradi. Bu esa milliy qadriyatlarimizning juda qadimgidavrlardan buyon saqlanib kelayotganligidan dalolatdir. Demak, doston tili leksikasi turli sohalarni qamrab olganligi, etnografik jihatdan boy an‘ana va

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

udumlarni saqlab qolganligi, toponim va onomostikaga boyligi bilan ham ajralib turadi.

Demak, «Alpomish» dostonidagi etnografik leksikaning bir qismini o‘zida aks ettirgan so‘zlar barcha qipchoq o‘zbeklari qatori Qoraqalpog‘iston hududidagi o‘zbeklarning, shuningdek, qoraqalpoqlarning urf-odat, dastur, rasm-rusumlariga yaqinligi bilan ham ajralib turadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рахимов А. Халқ дostonларининг тил системасидагн ўрни хусусида. ЎТА. – Тошкент, 2002.
2. Мирзаев Т. Дostonлар гултожи. Алпомиш. – Т., 1998.
3. Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик дostonи // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарифов. – Т.: “Шарк”, 1998.